XALQ DEPUTATLARI PAYARIQ TUMAN KENGASHI
Q A R O R I

2023 - yil 11 - iyul VI-84-117-7-100-K/23 Payariq tumani hokimligi

Payariq tumani hududidagi geografik obyektlarni nomlash to‘g‘risida

Tumandagi bir-birini takrorlovchi qabristonlarni nomlash, jumladan, joylarning qadimiy nomlarini tiklash yuzasidan tushgan takliflar muhokama qilinib, O‘zbekiston Respublikasining “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonuni (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2011-y., 41-son, 448-modda) va Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktabrdagi “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq geografik obyektlarning nomlari sohasidagi ishlarni tartibga solish chora-tadbirlari haqida”gi 295-sonli Qarori (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2012-y., 41-42-son, 483-modda), tuman komissiyasi takliflari hamda O‘zbekiston Respublikasi Davlat Soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligining 2023-yil 7-apreldagi 15-00736-sonli ekspertiza xulosasini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 24-moddasiga asosan, xalq deputatlari tuman Kengashining VI chaqiriq, sakson to‘rtinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. Payariq tumani hokimi Z.Ergashevning 2023-yil 18-maydagi 01-02-2159-sonli xati hamda O‘zbekiston Respublikasi Davlat Soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligining 2023-yil 7-apreldagi 15-00736-sonli ekspertiza xulosasi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Payariq tumanidagi qabristonlarning nomlari ro‘yxati 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Geografik obyektlarga nom berish va ularning nomlarini o‘zgartirish

bo‘yicha tuman komissiyasi (J.Abilov)ga nom berilgan va nomi o‘zgartirilgan qabristonlarni peshlavhalarini bosqichma-bosqich o‘rnatilishini ta’minlasin.

4. Belgilansinki, geografik obyektlarning nomlari sohasidagi ishlarini moliyalashtirish mahalliy byudjet mablag‘lari va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi.

5. Tuman hokimligi axborot xizmati rahbari (D.Hamidov) qarorni “Sampayariq.uz” rasmiy veb-saytiga rasman e’lon qilsin hamda “Payariq hayoti” gazetasi bosh muharriri (A.Tavboyev) “Payariq hayoti” gazetasiga joylashtirish tavsiya etilsin.

6. Mazkur qaror rasmiy manbalarda e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

7. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Sanoat, transport, qurilish, aloqa, kommunal xo‘jaligi masalalari va aholiga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha doimiy komissiya raisi (A.Tavboyev) hamda tuman hokimining ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta’minlash masalalari bo‘yicha maslahatchisi (J.Abilov)larning zimmasiga yuklatilsin.

Xalq deputatlari Payariq tumani Kengashi raisi **Z.Ergashev**

Xalq deputatlari Payariq tuman
Kengashining
2023-yil 11-iyuldagi
VI-84-117-7-100-K/23-son qaroriga
1-ilova

Payariq tumanidagi qabristonlar nomlari

RO‘YXATI

T/r	Geografik obyektning turi	Joylashgan o‘rni, MFY nomi	Geografik obyektning amaldagi nomi	Viloyat komissiyasi tomonidan berilgan taklif	Ekspert komissiyasining xulosasi
1	Qabriston	Farovon MFY	Nomsiz	Yuqori Katalas	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
2	Qabriston	Yangiobod MFY	Nomsiz	Madanivat	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
3	Qabriston	Navro‘z MFY	Nomsiz	Nurafshon	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
4	Qabriston	Nakurt MFY	Nomsiz	Yuqori G‘oyibota	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
5	Qabriston	Nakurt MFY	Nomsiz	Qizilolma	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
6	Qabriston	Taraqqiyot MFY	Nomsiz	Mirishkor	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq